

FUQAROLIK JAMIYATI VA YOSHLAR HUQUQIY MADANIYATI

*Adhamqulov Egamnazar Muhammadi o‘g‘li**Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatini qurishda yoshlar huquqiy madaniyatini yanada oshirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek davlatning demokratiyalashuvi fuqarolik jamiyatini qurish asosi sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, huquq, ahloq, kuchli ijtimoiy siyosat, siyosiy-huquqiy faollilik, fuqaro, yoshlar, ma’naviyat, tarbiya.

Abstract: In this article, the issues of further improving the legal culture of young people in building a civil society are organized. Also, the democratization of the state is shown as the basis for building a civil society.

Key words: civil society, legal culture, law, ethics, strong social policy, political-legal activism, citizen, youth, spirituality, education

Аннотация: В данной статье систематизированы вопросы дальнейшего повышения правовой культуры молодежи в построении гражданского общества. Также демократизация государства показана как основа построения гражданского общества.

Ключевые слова: гражданское общество, правовая культура, право, этика, сильная социальная политика, политико-правовой активизм, гражданин, молодежь, духовность, образование.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini qurish tarixiy sharoitlarda jahon davlatchiligi ilg‘or tajribalari va ko‘p ming yillik milliy an‘analarning sintezi sifasida dunyoga kelmoqda. Ya’ni, erkinlik va axloq, ozodlik va tarbiya, qonunga itoatkorlik va siyosiy huquqiyfaollik, hurriyat va qat’iy tartib – intizom uyg‘unligida fuqarolik jamiyati shakllantirilmoqda.[1] Bu jarayonga yoshlar huquqiy madaniyatidagi o‘zgarishlarning o‘ziga xos xususiyatlari bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Zero, yoshlar fuqarolik jamiyatining istiqboldagi tayanchi va yaratuvchisi hisoblanadi.

1991 yil 20 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonuniga berilgan sharhlarda O‘zbekiston fuqarolarining har uchdan biri 14 - 30 yoshli yigit yoki qizdir. Yoshlar respublika aholisining 33.3 foizini tashkil etadi[2] - deyilgan.

Bugungi kunda esa yoshlar O‘zbekiston aholisining 55 foizini tashkil etadi. Yangi asrning birinchi choragida mamlakat aholisining 30 millionga etishi kuzatilmoqda. Demak, mamlakatda oilalar soni 18 foizga o‘sadi, mehnat resurslari va saylovchilar ichida yoshlar soni 20 foizga o‘sadi. Mehnatga jalb etilgan mehnat resurslarining

yarmidan ko‘pi bu yoshlarga to‘g‘ri keladi. Kelgusidagi saylovchilar zahirasidagi har uchinchi saylovchi ham yoshlardan bo‘ladi. Demak, kelgusida yoshlar mamlakat aholisining yanada ko‘proq qismini tashkil qilishini ta’kidlash mumkin. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatining asosini ham bugungi kunda yoshlар tashkil etadi.

Shu nuqtai-nazardan 2016 yil 14 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi [3] qonunining yangi tahriri qabul qilinishi katta ahamiyat kasb etadi.

Erkin fuqarolik jamiyati qurish talabi va sa’y-harakatlari ko‘p qirrali jarayonlardandir. Garchi demokratik jamiyat mazmuni va xarakterining nazariy asoslari yaratilgan bo‘lsada, bu yoshlar ongida to‘la idrok etilmas ekan maqsadga erishish mumkin emas. Bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham yoshlar tafakkurida o‘zgarish yasamaguncha, jamiyatni yangilash mumkin emasligini aniq-ravshan ko‘rsatib; - “Jamiyatni ma’naviy yangilashdan ko‘zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish komil insonni tarbiyalash ... kabi ko‘pdan-ko‘p muhim masalalardan iborat” [4] - deb ta’kidlagan edilar.

Jamiyatni ma’naviy yangilash fuqarolik jamiyatiga o‘tishdagi asosiy bosqichlardan biri bo‘lib, bu yoshlarning jamiyat demokratiyalashuvidanagi ishtiroki bilan uyg‘unlikda ularning huquqiy-siyosiy madaniyati shakllanmoqda va takomillashmoqda.

Fuqarolik jamiyati yoshlarni olg‘a ildamlashini, mamlakat siyosiy -ijtimoiy hayotidagi faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirilishini talab etadi.

Islom Karimovning “Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasi ana shu erkin jamiyatni shakllantirishda demokratik qadriyatlarni yoshlar qadriyati va maslagiga aylanishining hamda ularning yuksak huquqiy madaniyatli bo‘lishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizdaadolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish va unda yoshlar ishtirokini ta’minalash uchun barcha shart – sharoitlar yaratilgan. Fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos milliy institutlari tashkil etilgan va asosiy qonunimizdagimavjud me’yorlarga har tomonlama mos bo‘lgan huquqiy asoslari mustahkamlangan. Bu esa davlat boshqaruvida fuqarolarning to‘la ishtirokini ta’minalaydi. Bu borada Islom Karimov shunday fikr yuritadi: “Bizadolatli, demokratik jamiyat qurmoqchi ekanmiz, bir haqiqatni aslo yoddan chiqarmaylik: tepadan turib, maxsus farmon yoki dekret bilan jamiyatdaadolat va demokratiyanio‘rnatib bo‘lmaydi. Bu barchaning birdek ishtiroki, birinchi navbatda peshqadam ziyorolarimiz, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari namoyondalarining, mas’ul xizmatchilarimizning g‘ayrati, jasorati, aql – zakovati bilan ro‘yobga chiqadigan murakkab ishdir” [5].

Bunda mamlakatning har bir fuqarosi qatorida yoshlar ham siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari,

o‘z – o‘zini boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat, notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar.

Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati demokratik islohotlar sub’ektlarining, yoshlarning huquqiy madaniyatida tub o‘zgarishlarni namoyon etmoqda. Bugun yoshlarning fuqarolik jamiyatini qurishda olg‘a intilishi, demokratik islohotlarning maqsad va mazmunini chuqur anglashi, yangi munosabatlarga qiziqishi, izlanishi, tarixiy - siyosiy tafakkurining shakllanishi, o‘zligini tanishi, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi uchun harakat qilishi, o‘ziga va idrokiga ishonchining ortishi, o‘z salohiyatini jamiyatni demokratiyalashuviga uchun sarflashga tayyor turishi, shaxs sifatida komillikka intilishi, o‘z kamolotini jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘lashi, bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishi, hayotga ochiq nazar va sofdillik bilan qarashi ularning sotsial-madaniy, siyosiy qiyofasida demokratik islohotlarning ijobiy natijasi mavjudligini ko‘rshimiz mumkin. Bu bevosita davlatimizning yoshlarga yaratilgan imkoniyatlari natijasidir.

Yoshlar o‘zlariga yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish bilan birga jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini unutmasliklari lozim.

Shu o‘rinda mamlakatimiz birinchi prezidentining “Demokratik jamiyat qurish uchun demokratik tamoyillarni to‘la qaror toptirish uchun, avvalo, shu mo‘tabar zaminda tavallud va tarbiya topgan shaxs o‘zini aynan shu yurt farzandi deb biluvchi inson o‘z davlati, o‘z halqi oldidagi, uni katta umidlar bilan tarbiya etgan, voyaga etkazgan jamiyat oldidagi burchini ado etishi kerak” [6] - degan dono so‘zlarini yodga olishning o‘zi kifoya.

“Bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko‘p jihatdan to‘rtta muhim omilgaya’ni, qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi qat’iy kurashish, institusional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog‘liq”-deb ta’kidlaydi, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.[7] Mana shu belgilangan vazifalarni bajarish ham bevosita fuqarolik jamiyatining muhim tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, yoshlar o‘z pozitsiyasida qat’iy turib jamiyat rivojiga o‘z hissasini qo‘sishda hamjihat bo‘lishlari kerak.

Bugungi dunyoda inson, uning sha’ni, obro‘yi va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sanaladi. Bu shaxsga cheksiz huquq va erkinliklarni beradi. Bizning yosh avlodimiz shunday shaxs bo‘lib kamol topsinki, toki ular kelajakda o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlikda ko‘ra bilsin va shu asosda faoliyat yuritsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-tom.-T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 350-bet.
2. Xalq so‘zi, 1991 yil 22 noyabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni. 2016 yil 14 sentyabr
4. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush pirovard maqsadimiz.- T.:O‘zbekiston, 2000, 499-bet.
5. Karimov I. Adolatli jamiyat sari.-T.:O‘zbekiston, 1998, 118-bet.
6. Karimov I.A Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. T-2, T.:O‘zbekiston, 1992, 21-bet.
7. <https://president.uz>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.